



## RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARNI TAFFAKUR VA NUTQ XUSUSIYATI

*Andijon davlat pedagogika insitutining  
maktabgacha ta'lim fakulteti  
Logopediya yo'nalishi 1 bosqich talabasi  
Ro'ziboyeva Diyora Ilyosbek qizi*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258370>

**Annotatsiya.** Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar taffakurini xususiyatlari, o'ziga xosligi, turlari va taffakur orqali ularni aqli zaiflikdan ajrata olishga yordam berishi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar turlari haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** taffakur, obraz, diagnostika, aqli zaiflik, bilish, sezgi, intellectual, Talaffuz, grammatika, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, hissiy, muvaffaqiyat, diferentsiatsiya, xarakter. Ruhiy rivojlanishning susayishi haqidagi ma'lumotlar asosan XX asrning ikkinchi yarmidan keyin ko'zga tashlana boshladi. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda ruhiy rivojlanishning susayishi vaqtinchalik holat deb tasavvur qilingan. O'zlashtirmaslikning aqliy zaiflik bilan o'xshatmoq, chalkashtirish qo'pol xatoliklarga olib keladi. O'zlashtirmaslikning ko'pincha aqli zaiflikning yengil darajalariga, zaif eshituvchilarga o'xshatib yuboriladi.

**Ruhiy rivojlanishi sustlashganlikning kelib chiqish sabablari har xil bo'ladi:**

-onaning homiladorlik davridagi taksikozlari:

-bolaning chala tug'ilishi, asfeksiya:

-onaning yurak tomir kasalliklari:

-bolaning yurak kasalliklari (tug'ma parog).

**O'zlashtirmaslikning sabablari:**

-bolaning maktab ta'limiga tayyor emasligi

-bolada o'quv faoliyati zaminlari va malakalarining shakllanmaganligi:

-bolalar talablarga bo'ysinishga o'rganmaganlar, boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishni, topshiriqni bajarganda diqqat qilishni bilmaydilar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning bilish faoliyati, tafakkuri, idrok, diqqat, ish qobiliyati markaziy nerv sistemasining kasalliklari, o'qituvchining pedagogik malakasining pastligi, oiladagi nizolar, noto'g'ri tarbiya natijasida bir qadar zarar yetgan bo'ladi. Doimo o'zlashtira olmaslik tufayli bu bolalar xulq atvorida turli salbiy xislatlar yuzaga keladi. N.Vayzman va boshqa olimlar tekshirishi shuni ko'rsatdiki, ruhiy rivojlanishi sust bolalar o'zlashtirish jihatdan sog'lom va debil bolalar orasidagi oraliq o'rinda turadi. Normal bola topshiriqni to'g'ri tushunib, kerakli tartibda bajargan bo'lsa, debil bolalar bajara olmaydilar.

**Ruhiy rivojlanishning susayishi quyidagi turlardan iborat.**

1. Ruhiy rivojlanish susayishining konstitutsion turi.

2. Ruhiy rivojlanish susayishining somatagen turi.

3. Ruhiy rivojlanish susayishining psixogen turi.

4. Ruhiy rivojlanish susayishining organik serebral turi.

**Konstitutsional turi.** Infartil bolalar psixik rivojlanishi bo'yicha o'z tengdoshlaridan orqada qoladilar.

Infartilizm tug'ma yoki o'sish davridagi har xil kasalliklar ta'sirida kelib chiqadi. Bolalarda infartilizm yuqumli kasalliklar, ichkli sekretsiya bezlari, miya kasalliklari, tomirdagi nuqsonlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ularning qiziqishlari o'yin faoliyati bilan chegaralanadi. O'yin jarayonida ular o'ziga xizmat qilish malakalarini egallab olsalar ham undan kam foydalanadilar. Mustaqil o'yinlar mazmunli, qiziqarli bo'lib, uzoq davom etishi mumkin. Infartil bolalarning lug'at boyligi yetarlicha bo'lib, ular hikoyaning, ertakning mazmunini tushunib oladilar. Qiynalganda yordamdan yaxshi foydalana oladilar. Infartil bolalar uchun ayniqsa xulqning murakkab formalari rivojlanmay qolishi xarakterlidir. Bunday bolalarda barcha faoliyat turlarining



funksional faolligining pasaygani kuzatiladi. Infantil bolalar odatda bo'yi past, gavda tuzilishi noto'g'ri bo'ladi. Ularning ko'pchiligi jinsiy sistemaning rivojlanmay qolganligi kuzatilib, yetilishning orqada qolishi va ikkilamchi jinsiy tomonning rivojlanmay qolishiga olib keladi. Bunday bolalar maktabda o'qishga qiziqmaydilar. O'zlashtirmaslik bolaning astenik holatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Astenik holatni qattiq charchash, ruhiy kechinmalar keltirib chiqaradi. Bunday bolalar o'qish jarayonida tez charchaydilar, bosh og'rig'i, quvvatsizlik natijasida qobiliyati pasayadi, xotira, quvvati zaiflashadi. Topshiriqni bajarganda e'tiborni bir joyga to'play olmaydilar. Buning natijasida o'qish, yozish, hisoblashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Yozuvda harflarni tashlab ketish, so'zlarni oxirigacha yozmaslik, bo'g'inlarni tashlab ketishi kuzatiladi. Serebroastenik holatda markaziy nerv sistemasi tez charchaydi. Nevrologik o'zgarishlar kuzatiladi.

Psixogen shaklining kelib chiqish sabablari:

-bola tarbiyasi bilan shug'ullanmaslik, burch, ma'suliyat hissining shakllanmasligi, zarur bilim va tasavvurning yetishmasligi

-bolani haddan tashqari erkalatish

-bolaga qo'pol munosabatda bo'lish, jazolash ota-ona mojarolari, alkogolizmga ruju qo'yish:

**Psixogen shaklida** bosh miyaning kasalliklariga yaxshi yetilmaganligiga aloqador o'zgarishlar kuzatiladi, ularning his tuyg'u, irodaviy holatlari taraqqiy etmaganligi asosan organik infatilizm tarzda namoyon bo'ladi:

-ko'tarinki ruhda yuradigan bolalar

-kayfiyati o'zgarib, mayus yuradigan bolalar

-mustaqil harakat qilolmaslik, qo'rqib yuradigan bolalar

-miyaga aloqador organik harakterdagi infatilizm:

-serebral-endokren infatilizm. His-tuyg'u yaxshi rivojlanmay, nevropatiya holatlari yuzaga keladi. Yaxshi uxlay olmaydi, ishtahasi bo'lmaydi.

**Ruhiy rivojlanish sustlashganlikning serebral shakli.** Bosh miya shikastlari, meningit, meningoese felit, gidrosefeliya va boshqa kasalliklar natijasida kelib chiqadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun mamlakatimizda maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maxsus maktab internatlar, kuni uzaytirilgan maktablar, tenglashtirish sinflari tashkil etilgan. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan alohida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi.

**Somatagen turida** Ruhiiy rivojlanishning somotogen turi organizmdagi jismoniy (somatik) kasalliklar yoki buzilishlar natijasida yuzaga keladigan ruhiy rivojlanish kechikishi yoki patologiyalarini anglatadi. Bu turdagi rivojlanish buzilishlari quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

-Homiladorlik va tug'ruq davridagi omillar – homila gipoksiyasi, ona organizmidagi infeksiyalar, toksik ta'sirlar.

-Bola yoshligida og'ir kasalliklar – uzoq davom etgan yallig'lanish jarayonlari, intoksikatsiya, bosh miya shikastlanishlari.

-Endokrin buzilishlar – qalqonsimon bez yetishmovchiligi (gipotireoz), buyrak usti bezlari disfunktsiyasi.

-Genetik kasalliklar – metabolik sindromlar, Fermentopatiyalar (masalan, fenilketonuriya).

-Organik miya shikastlanishlari – bosh miya travmalari, neyroinfeksiyalar.

Ommaviy maktab oldida ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolaning har tomonlama barkamol o'sishini ta'minlashdek muhim vazifa turadi. Bu vazifani bajara borib, ba'zan ayrim bolalarning o'qishda qiynalishlari kuzatiladi. Bu qiyinchiliklar bolalarning ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklar oqibatida tug'iladi. Bu kamchiliklar maktabda bolaning o'zlashtirmasligiga olib keladi. Nuqsonli bolalar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchraydi. Bu bolalarda hech qanday organik jarohatlar bo'lmaydi. Umumta'lim maktablarida rivojlanishda turli nuqsonlari bo'lgan bolalarning ko'pchiligi o'qiydilar va ushbu maktab dasturini o'zlashtirishga qiynaladilar.



Umumta'lim maktablaridagi barcha o'zlashtirmovchi o'quvchilarni 3 guruhga ajratish mumkin.

1.Umumta'lim maktablarida qoldiriladigan yoki uzoq bo'lmagan muddatga sog'lomlashtirish nuassasalariga yuborilib, maktabga qaytariladigan o'zlashtirmovchi bolalar.

2.Nuqson harakteriga ko'ra tegishli maxsus maktablarga yuboriladigan o'zlashtirmovchi bolalar.

3.Umumta'lim maktablarda qoldiriladigan o'zlashtirmovchi bolalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: bolalarning aksariyat 7 yoshda ham maktabga bormasdan bog'chada qolishni ho'xlaydi. O'qishda bo'lgan qiziqishlarga ustunlik qiladi. O'yinga bo'lgan qiziqishining ustunlik qilganligi va doimo, muntazam muvaffaqiyatsizlikka uchrab turishi sababli bu bolalarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shaklana boradi. O'z-o'ziga ishonmaslik hislari shaklanadi. Aksariyat hollarda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda intellektual faollik, qiziqishlar yetarli bo'lmaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni faoliyati o'rganilganda ularning o'z faoliyatini yetarli rejalashtira olmasligi, xatti harakatlarining normal bolalarga nisbatan qo'zg'aluvchanligi, o'z-o'zini nazorat qilish saviyasining pastligi, o'z imkoniyatlarini yetarli baholay olmasligi va faoliyatlarni maqsad sari yonaltirishning yetarli emasligi ma'lum bo'ldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. “Maxsus pedagogika” M.U.Xamidova Toshkent-2018
2. M.Ayupova “Logopediya” 2007 yil
3. “logopediya”(L.S Volkova tahriri ostida)-M
4. “Logopediya”(L.Mominova,M. Ayupova)-T